

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI (METODIK TAVSIYA)

Ganiyeva Nodira Rozuvayevna

Andijon viloyati Asaka tumani

6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...”

Shavkat Mirziyoyev

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta’lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” doirasida O‘zbekistonda ta’lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllantirilmoqda.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta’lim sifatini

baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev boshchiligidagi hukumatimiz ham ta'lim sohasida tub burilishlar qilgan holda ko'plab farmon va qarorlar chiqardilarki, ularning asosiy maqsadi yosh avlodni yuksak ma'naviyatli etib tarbiyalashdan iborat. Shu jumladan 2017-yil 6-aprelda Vazirlar mahkamasining 187-sonli qarori imzolandi.

Unga ko'ra:

Davlat ta'lim standartining maqsadi — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, belgilangan talablarga javob beruvchi, ma'naviy barkamol, kasb mahoratiga ega bo'lgan, mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarning mamlakat ravnaqi kadrlarning hayotga qay darajada tayyor ekanligi bilan uzviy bog'liqligini o'z nutqlarida ta'kidlab, hozirgi zamon ta'lim va tarbiya jarayonlarini tubdan o'zgartirish, sobiq avtoritor pedagogikadan voz kechish va tarbiyalashga o'rgatish vaqti kelganligini, bunda barcha "ustoz-pedagoglar" o'z faoliyatlarida tubdan o'zgarish qilishligi davr talabi ekanligini, faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, yangi ta'lim texnologiyalari ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan amaldagi o'quv dasturiga ko'ra o'quvchilarga matematik ifodalar, sonli tengliklar va tenglamalar haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi, xarfiy simvolika (belgilar), o'zgaruvchilar bilan tanishtiriladi, eng sodda tenglama va tengsizliklarni yechish o'rgatiladi.

Uzluksiz matematik ta'lim tizimida qo'llanishi mumkin bo'lgan interfaol va qiziqarli pedagogik strategiyalar o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy fikrlashga undaydi, ularni bilim olishda faollashtiradi; o'quvchilar va o'qituvchilar orasida bo'lgan o'zaro ijobiy xamkorlikni namoyish etadi.

Interfaol strategiyalarning mazmunini anglab yetgan o'quvchilar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqish bilan kirishib ketadilar.

Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan amaldagi o'quv dasturiga ko'ra o'quvchilarga matematik ifodalar, sonli tengliklar va tenglamalar haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi, xarfiy simvolika (belgilar), o'zgaruvchilar bilan tanishtiriladi, eng sodda tenglama va tengsizliklarni yechish o'rgatiladi.

Uzluksiz matematik ta'lim tizimida qo'llanishi mumkin bo'lgan interfaol va qiziqarli pedagogik strategiyalar o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy fikrlashga undaydi, ularni bilim olishda faollashtiradi; o'quvchilar va o'qituvchilar orasida bo'lgan o'zaro ijobiy xamkorlikni namoyish etadi. Interfaol strategiyalarning mazmunini anglab yetgan o'quvchilar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqish bilan kirishib ketadilar.

Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganingiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilayotganligidir. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodi ta'lim oluvchi va o'qituvchining o'qitish jarayonidagi o'zaro aloqa shaklidir. Biz oxirgi jumlagacha misol va ko'rgazma bilan aniqlik kiritamiz.

O'qituvchi va o'quvchi orasidagi jarayon aslida o'quvchini u yoki bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish maqsadida bog'lab turganligini ko'rsatadi.

Agar keng ko'lamda oladigan bo'lsak, o'qitishning birinchi kunlaridan to shu kungacha o'qituvchi va o'quvchi orasida keng ma'noda uch xil bog'lanish shakllangan bo'lib, u o'z tasdig'ini topgan. Uslubiy yondashuvda o'qitishning barcha metodini uch guruhga bo'lishimiz mumkin.

1. Nofaol metod;
2. Faol metod;
3. Interaktiv metod.

Ko'rsatib o'tilgan har bir uslubiy yondashuv o'ziga xos xususiyatga ega. Quyida biz uslubiy yondashuvlarni atroflicha ko'rib chiqamiz. Shu bilan birga asosiy diqqatimizni o'qitishning interaktiv usullariga qaratamiz.

Nofaol uslubiy yondashuv. Bunda o'qituvchi darsning asosiy harakatlanuvchi figurasi hisoblanadi, o'quvchilar esa nofaol eshituvchi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur metod darslardagi teskari mustaqil savol-javoblarda, nazorat ishlarida, test va boshqa usullarda aks etadi. Nofaol metod o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishlaridagi eng samarasiz usul hisoblanadi, lekin uning o'ziga xos ijobiy tomoni mavjud. Bu xildagi darslarga tayyorgarlik ko'rishda ko'p mehnat talab qilinmaydi. Chegaralangan vaqt oralig'ida katta miqdordagi o'quv materialini topishga imkon beradi. Shuni hisobga olib, ayrim o'qituvchilar uni boshqa metodlardan ustun qo'yadilar. Darhaqiqat, ayrim hollarda bu metod tajribali va malakali o'qituvchining ishga yondashuvida ijobiy natijalar berishi mumkin. Ayniqsa, o'quvchilar o'rganayotgan predmetlarning maqsadini va tub mohiyatini aniq belgilab olgan bo'lsalar, maqsadga muvofiqdir. Faol va interfaol yondashuvlarda esa umumiylik ko'proq ko'zga tashlanadi. Umuman olganda, interaktiv metodni ko'proq yangi faol metodlarning shakli sifatida ko'rishimiz mumkin. Faol metodlardan farqli o'laroq, interaktiv metodlar nafaqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro aloqasini, balki o'qitish jarayonida ularning o'zaro bir-biri bilan faol munosabatda bo'lishlariga yo'naltirilgan. Interaktiv darslarda maqsadga erishish uchun o'qituvchi o'z o'rnini o'quvchilarga bo'shatib berishi lozim. Bunda o'qituvchi o'rnini o'quvchilar faoliyati yo'nalishi bilan qisman bog'lanadi va bu dars jarayonida maqsadga erishish uchun yetarli zamin yaratadi. O'qituvchi dars rejasini tuzadi (qoida bo'yicha interaktiv mashq va topshiriqlar o'quvchi o'zlashtirayotgan material bilan o'zaro bog'liq bo'ladi). O'quvchilar bajaradigan interfaol darslardagi interaktiv mashq va topshiriqlar uning asosiy tarkibi hisoblanadi. Oddiy mashq va topshiriqlardan interaktiv mashq va topshiriqlar shunisi bilan farqlanadiki, ularni bajarish jarayonida o'rganilgan material nafaqat mustahkamlanadi, balki yana yangilari ham olinadi.

Biz boshlang'ich sinflarda algebra elementlarini o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalardan namunalar keltiramiz.

1. “Kichik guruhlarda ishlash” metodikasi

Kichik guruhlarda ishlash - o‘qituvchi tomonidan berilgan ma’lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, berilgan topshiriqni yechish yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metoddir. Ushbu metod qo‘llanilganda o‘quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kichik guruhlarda ishlash metodi qo‘llanilganda o‘qituvchi boshqa noan’anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholash imkoni bo‘ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodining afzalligi:

O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

Muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;

Vaqtning tejash imkoniyati mavjud;

Barcha o‘quvchilar jalb etiladi;

O‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodining kamchiliklari:

Kuchsiz o‘quvchilar bo‘lganligi sababli, kuchli o‘quvchilarning past baho olish ehtimoli bor;

Barcha o‘quvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;

Guruhlararo o‘zaro salbiy oqibatlar paydo bo‘lishi mumkin.

Guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

2. “Bahs-munozara” metodi - o‘quvchilarni ikki guruhga bo‘lgan holda, biror mavzu bo‘yicha o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda, ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs -munozarani boshqarib borish vazifasini o‘quvchilarning biriga topshirish mumkin. bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir o‘quvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda o‘quvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

Bahs-munozara metodining afzalliklari:

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;

O‘quvchilar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga intiladilar;

O‘quvchilarda eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Bahs-munozara metodining kamchiliklari:

O‘qituvchidan boshqarish mahoratini talab etadi;

O‘quvchilar bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash kerak.

3. “Davra suhbat” metodi:

Davra suhbat - o‘quvchilar o‘rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. “Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o‘quvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbat og‘zaki va yozma shakllari mavjud. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab, o‘quvchidan ushbu mavzu bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir o‘quvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadi. So‘zlayotgan o‘quvchini barcha qiziqish bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Aqliy hujum metodidan foydalanilganda o‘quvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan, o‘quvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O‘quvchilarda o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlarning baholanmasligi o‘quvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak va natijalarga s mavzularni o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilimlarini oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir o‘quvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir o‘quvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va yonidagi o‘quvchiga uzatadi.

4. “Ishbop o‘yin” metodi

qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, o'quvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

O'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;

O'quvchilar sabab, farq va ta'sirlarni topishni o'rganadilar;

O'quvchilar bilim va tajribalarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

O'quvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

O'quvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;

Qo'yilgan muammo o'quvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;

Ko'p vaqt talab etiladi.

6. “Aqliy hujum” metodi

Aqliy hujum - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. “Aqliy hujum” metodi biror muammoni yechishda o'quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklda o'qituvchi bergan savol o'quvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. O'quvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga o'quvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki “pinbord” doskasiga (ilgaklar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni
2. “Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Toshkent.
3. N.U. Bikbayeva va boshqalar. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent. “O‘qituvchi” 1996 yil.
4. B.Toshmurodov. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishni takomilashtirish”. Toshkent. “O‘qituvchi” 2000 yil.
5. R.J.Ishmuhammedov “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”. Toshkent 2009 yil.
6. M.E. Jumayev “Matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2004 yil.
7. L.Levenberg. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent. O‘qituvchi 1989 yil.
8. L.P.Stoylova. A.M.Pishkolo. “Boshlang‘ich matematika kursi asoslari” Toshkent. O‘qituvchi 1991 yil.
9. Xalq ta’limi jurnali sonlari.
10. Boshlang‘ich ta’lim jurnali sonlari.